

2. Python sintaksisi, pythonda komment (izox) yozish

2.1 Python sintaksisini bajarish

Python sintaksisi to'g'ridan-to'g'ri buyruq satriga (terminalga) yozish orqali bajarilishi mumkin:

```
>>> print("Hello, World!")  
Hello, World!
```

Yoki terminalda yozilgan, serverda yuklangan fayllarni .py qisqartmasi orqali terminalda o'qish

```
C:\Users\Your Name>python myfile.py
```

2.2 Pythonda joy tashlash (1 ta tab tashlash)

Indentation (joy tashlash) kod satrining boshidagi bo'shliqlarni bildiradi

Boshqa dasturlash tillarida koddagi joy tashlash faqat o'qilishi uchun bo'lsa, Pythonda joy tashlash juda muhim

Python kod blokini ko'rsatish uchun chiziqdan foydalanadi yani bitta tab tashlangan liniya kodingizda bir chiziq bo'lib ko'rilib turadi

```
if 5 > 2:  
    print("Five is greater than two!")
```

Agar joy tashlamasdan yozsangiz python hatolik beradi

```
if 5 > 2:  
print("Five is greater than two!")
```

Bo'shliqlar soni dasturchi sifatida sizga bog'liq, eng keng tarqalgan foydalanish to'rtta probel (yoki 1 ta tab), lekin u kamida bitta bo'lishi kerak.

```
if 5 > 2:  
    print("Five is greater than two!")  
if 5 > 2:  
    print("Five is greater than two!")
```

Siz bir xil kod blokida bir xil miqdordagi bo'sh joydan foydalanishingiz kerak, aks holda Python sizga xato beradi:

```
if 5 > 2:
    print("Five is greater than two!")
    print("Five is greater than two!")
```

```
File "demo_indentation2_error.py", line 3
    print("Five is greater than two!")
    ^
IndentationError: unexpected indent
```

Kodda joy tashlash bilan bo'g'liq xato va uni qaysi qatorda ekaligi haqida ma'lumot beryapti

2.3 Pythonda komment (izox) yozish

Komment kodingizni tushuntirish uchun ishlatilishi mumkin. Yoki izoh sifatida foydalanish mumkin.

Komment kodni sinab ko'rishda bajarilishi kerak bo'lgan ketma ketlikni xam yozishingiz mumkin.

2.3.1 Kommentlarni yaratish

Pythonda kommentlardan oldin # belgisi qo'yiladi. # - bu belgidan keying yozuvni cod sifatida python o'qimaydi

```
#Bu komment
print("Hello, World!")
```

2.3.2 Izohlar satr oxirida ham joylashtirilishi mumkin va Python qatorning qolgan qismini e'tiborsiz qoldiradi:

```
print("Hello, World!") #Bu komment
```

2.3.3 Komment kodni tushuntiruvchi matn bo'lishi shart emas, u Python kodini bajarishini oldini olish uchun ham ishlatilishi mumkin ya'ni kodingizni biror qatorini ishlatmoqchi bo'lmasangiz xam bu # belgini qo'yishingiz mumkin. E'tabor beri faqat # keyin yozilgan qisminigina o'qimaydi.

```
#print("Hello, World!")
print("Cheers, Mate!")
```

2.4 Ko`p qatorli kommentlar

Python ko'p qatorli komment uchun ma`lum bir sintaksisiga ega emas.

Ko'p qatorli kommentlar yozilganda xar bir qatorga # belgisi qo`yiladi

```
#Bir qatordan  
#ko`proq  
#yoziladigan kommentlar  
print("Hello, World!")
```

2.4.1 Ko`p qatorli kommentlarni 3 tirnoq """ KOMMENT """ shaklida xam yozishingiz mumkin

```
"""  
This is a comment  
written in  
more than just one line  
"""  
print("Hello, World!")
```